



## “KO’HNA DUNYO” ROMANI – O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI BIRINCHI TARIXIY-POLIFONIK ASAR

**Rahbaroy Sindarova**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

sindarovarahbaroy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20509935>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil  
Ma’qullandi: 28-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEY WORDS

roman, badiiy obraz, tarixiy  
shaxslar, tarixiy-polifonik roman.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada taniqli o‘zbek adibi Odil Yoqubov ijodi, xususan, o‘zbek romanchiligi rivojida yangi bosqichni boshlab bergan “Ko’hna dunyo” tarixiy romani tahlil qilingan. Asarda ma’rifatparvar allomalar — Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy hayoti hamda ularning Sulton Mahmud G‘aznaviy saltanati bilan bo‘lgan ziddiyatli munosabatlari yoritilgan. Muallif an’anaviy xronologik bayondan qochib, voqealarni qahramonlarning ruhiy olami va ichki kechinmalari orqali polifonik usulda aks ettirganini ko‘rsatib beradi. Romanda tarixiy shaxslar bilan birga badiiy to‘qima obrazlarning ham psixologik hamda falsafiy jihatdan ishonchli yaratilgani tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada asarda qo‘llanilgan afsona va rivoyatlarning o‘rni hamda davr ruhini aks ettiruvchi o‘ziga xos til xususiyatlari tadqiq qilingan. Maqola yakunida “Ko’hna dunyo” romani o‘zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy-polifonik asar sifatida yuqori baholangan.*

Odil Yoqubov o‘zbek adabiyotining eng sermahsul ijodkorlaridan biridir. Ijodi talabalik yillaridanoq boshlangan. Dastlab yirik janrlarda ijod qilgan, ya’ni 1951-yilda “Tengdoshlar” qissasini yozgan. So‘ng birin-ketin 1953-yilda “Dastlabki qadam”, 1955-yilda “Ikki muhabbat” hikoyalar to‘plami yaratildi. Odil Yoqubov prozaning eng yirik janri – romanchilikda ham ijod qildi. “Er boshiga ish tushsa”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko’hna dunyo” kabi romanlarini yozdi.

“XX asr o‘zbek adabiyotida ... Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Beruniy, Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ shoirlar, olimlar va davlat arboblari haqida ancha baquvvat asarlar yaratilgan. Bu borada, ayniqsa, Odil Yoqubov va Pirmiqul Qodirov kabi adiblarimizning xizmati diqqatga sazovordir”. Natijada, “... har jihatdan tarixiy roman talablariga javob beradigan asarlar yaratishga asos bo‘ladigan maktab yaratildi (“Navoiy”, “Abay yo‘li”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko’hna dunyo”, “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”)”. Ayniqsa, “O.Yoqubovning 70-80-yillarda yaratilgan tarixiy mavzudagi “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko’hna dunyo” asarlari faqat adib ijodida emas, o‘zbek romanchiligi rivojida ham yangi bir bosqichni tashkil etadi”. Buning ta’sirida “Yozuvchi (O.Yoqubov) o‘zbek romani poetikasiga

ko'pgina yangiliklar olib kirdi. Xususan, u o'zbek tarixiy-polifonik romaniga asos soldi". Asardagi g'oyaviy falsafaning ifodalanish usulini tanqidchi M.Qo'shjonov shunday yozadi: "Tarixni aks ettirishning ikki yo'li bor. Biri xronologik tarzda, tanlangan qahramon izidan borib tarixga nazar tashlash; ikkinchisi, tarixning umum manzarasini qamrab olib, tarixiy voqealar, bir qancha shaxslarning taqdirleri orqali tanlangan qahramon hayotiga, uning qilmish-qidirmimishlariga nazar tashlash. Odil Yoqubov ikkinchi yo'lni tanladi. Uning hayotini ko'rish, hayot voqealarini tadqiq va tahlil qilish metodi shunday". Asarning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda tarixiy voqea-hodisalar yetakchilik qilmaydi, unda qahramonlarning ruhiy olamiga, botinidagi ichki kurashlarga e'tibor qaratadi. Romanda asrning eng buyuk siymolari – Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Sulton Mahmud G'aznaviy, shuningdek, oddiy insonlar taqdiri ham mahorat bilan ochib berilgan. Asarning asosiy qahramonlaridan biri – Ibn Sino sarson-sargardonlikda, quvg'inda, muttasil qochqinlikda yashasa-da, o'zining ilmi, qalbi va tafakkurini barcha narsadan ustun qo'yadi, o'limdan-da qo'rqmaydi, Sulton Mahmud G'aznaviyning taklifini rad etib, saroydan bosh olib ketadi. Safar vaqtlarida ham dam olmaydi, tabiatning ajoyibotlarini kuzatar, tog'- dashtlarda giyohlar yig'ar, parranda va darrandalarni kuzatar edi. Dushmanlar ig'vosi bilan qamalganda ham vaqtini bekor o'tkazmagan, kun-u tun mutolaa va mushohada bilan band bo'lgan. U o'zining "Hayy ibn Yaqzon", "Qushlar risolasi", "Salomon va Ibsol" kabi asarlarini qamoqda bo'lganda yozib tugatadi. Asar yakunida soxta Ibn Sino ya'ni, Abu Shilqim Shahvoniyga shoh ishonganda ham Ibn Sino hech qanday o'zgarishlarsiz qabul qiladi, chunki manmanlik, shuhratparastlik, o'zini ko'z-ko'z qilish kabi xislatlar uning ruhiyatiga mutlaqo yotdir. Ibn Sino obrazi orqali muallif ilm va hokimiyat o'rtasidagi abadiy ziddiyatni tasvirlaydi. Abu Rayhon Beruniy G'aznada Sulton Mahmud saroyida qolsa-da, o'zining topqirligi, olimligi, insonlarga ilmi orqali xizmat qilishi asarda yaqqol ochib berilgan. Beruniy romanda serqirra inson sifatida gavdalanadi: astronom, tarixchi, geograf, faylasuf. "Al-qonun", "Hindiston", "Geodeziya" "Al-Xazniy" kabi asarlari yaratildi. Ma'danlarning solishtirma og'irligini o'lchaydigan asbob yasash g'oyasini kashf qildi. Beruniy sultonning qahridan qo'rqmaydi, u faqat bir narsadan – niyat qilgan ishlarining chala qolishidan, yoza boshlagan asarlarining niyyasiga yetmay qolishidan qo'rqadi, xolos. Beruniy romanning eng murakkab va ichki ziddiyatga to'la obrazlaridan biridir. Uning holati "oltin qafas"dagi qush holiga o'xshaydi – moddiy tomondan ta'minlangan, ammo ruhan va ma'nan qiynaladi. Tanqidchi A.Hakimov romanda olimning, insonning qadr-qimmati masalasi ko'tarilganligini birmuncha to'g'ri payqaydi va shunday deb yozadi: "Dunyoning past-u balandligini, achchiq-chuchugini anglagan ikki donishmand zo'rlik va oltin hukmron bo'lgan hayotda adolat va haqiqat tantana qilmasligini tan olib, yoshlik xayollaridan voz kechadilar. O'ksigan ko'ngillarini yolg'iz kelajakka bo'lgan umidgina ilitib turadi. Ular tabiatning gultoji bo'lgan inson g'aflat va jaholatda qolib ketmasligiga ishonadilar. Ibn Sinoning "Al-qonun", va "Ash-shifo" asarlarining asl qimmatini kelajak avlodlarga qadrlay oladilar, degan fikrni xayolidan kechiradi Beruniy". An'anaviy tarixiy romanlarda shohlar va hukmdorlar obrazi ko'pincha biryozlama, ya'ni yo faqat fohit, yo faqat zolim sifatida tasvirlangan bo'lsa, "Ko'hna dunyo"da esa Mahmud G'aznaviy obrazi murakkab ichki ziddiyatlar, ko'p ovoqli o'y-fikrlar girdobida beriladi. U bir tomondan qudratli saltanat asoschisi, shuningdek, Firdavsiyning "Shohnoma" asari uchun haq to'lashi, Beruniy kabi allomai zamonlarni yonida tutishi kabi holatlarda ilm-ma'rifat homiysi bo'lishga intilayotgan shaxs sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi tomondan esa nafsiga qul bo'lgan, zolim, shafqatsiz, o'z yaqinlariga ham

ishonmaydigan mutakabir va qo'rquvlar ichida yashayotgan obraz hisoblanadi. O.Yoqubov asar markaziga jahonga mashhur ikki donishmand – Beruniy va Ibn Sino obrzlarini qo'yadi-da, jamiyatdagi Qutlug'qadam tipidagi xalq vakillarining, Mahmud G'aznaviydek sultonlarning, saroy a'yonlarining hamda Piri Bukriy toifasidagi savdogarlarning ularga bo'lgan munosabatlarini ocha boradi, go'yo o'zaro muqoyasa qiladi, kitobxon bilan birga tahlildan o'tkazadi. Natijada muayyan hodisaga, shaxslarga nisbatan turli qrashlar, munosabatlar o'zaro chatishib ketgandek bo'ladi. Bu esa rus yozuvchisi F.M. Dostoyevskiy romanlaridagi polifonik tasvirni eslatadi. Asardagi har bir obraz – tarixiy shaxsmi yoki badiiy to'qimami – muallif tomonidan psixologik jihtdan ishonchli, falsafiy jihatdan mazmunli tarzda yaratilgan. "Ko'hna dunyo" romanida asotirlar, afsona va rivoyatlar katta o'rin tutadi. Ayni paytda, afsona va rivoyatlar sujet taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, xarakterlarga epiklik bag'ishlaydi. Asarda Ibn Sino tomonidan o'lim mavzusida rivoyat aytiladi. "Ajal! Hayot va O'lim! Mana, salkam qirq yildirki, bu yechilmas tugun Ibn Sinoning hayolini betinim band etib keladi, bu chigal sir-asrorning tagiga yetish orzusida u qay ko'chalarga kirib chiqmadi, ne-ne dorularni yaratmadi! Ajab hol: yoshlikda, Buxoro hokimi Nuh ibn Mansurni davolab, uning kutubxonasidagi Abu Bakr ar-Roziy, Buqrot hakim va Jolinus kitoblarini "chaynamay yutib" yurgan chog'larida, kelgusida uning uchun yechilmaydigan jumboq bo'lmasligiga, hatto ajalga ham davo topishiga amin edi. Endi esa minglab giyohlar sirini anglab, serjumboq tabiatning ko'p hodisalariga tushunganida esa, yoshlik orzularining puchligiga inondi. Hayhot, tabiat sirlarini o'rgangan sayin uning tagi chuqurlashib bormoqda, bir jumboqni yechsa, ikkinchisi, ikkinchisini yechsa, uchinchisi ro'baro' bo'ladi. Mana, soqoliga oq oralab, ko'zidan nuri, belidan quvvati keta boshladi hamki, ilm bobidagi bu quvdi-qochdining intihosi ko'rinmaydi". Ushbu rivoyat yozuvchi tomonidan mohirona tarzda asarga kiritilgan. Akademik M.Qo'shjonov ta'kidlaganidek, "Ko'hna dunyo" da adib asar tilini jiddiy ishlagan. Til materiali ustida u shunday ishlaydi: eski o'zbek tili xazinasidan keng kitobxonga tushunarli so'zlarni tanlaydi, eski tilga xos birikmalarni ham ancha soddalashtiradi. Natijada asar tili qurilishidan o'sha davr ruhi sezilib turadi, ham bugungi til qonuniyatlariga zid unsurlardan holi ko'rinadi" Odil Yoqubov tarixiy sharoitni anglagan holda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud G'aznaviy, Bobo Xurmo, Xatlibegim, Qutlug'qadam, Abu Shilqim Shahvoniy kabi tarixiy va to'qima obrazlarni asar syujetidagi polifonik ruhning matndagi imkonini kengaytirgan.

Romandagi hozirgi zamon uchun muhim bo'lgan va davrimiz kishilarini hayajonga solayotgan uzoq tarixiy hayot muammolarini hamda ulardan kelib chiqadigan g'oyaviy falsafani Odil Yoqubov ulug' rus yozuvchisi F.M. Dostoyevskiy an'analari izidan borib, polifonik tasvir vositasida talqin etdi. Shunga ko'ra, "Ko'hna dunyo" o'zbek adabiyotida yaratilgan birinchi tarixiy-polifonik roman hisoblanadi. O.Yoqubovning romanchiligi zamonaviy o'zbek nasrining badiiy tasvir imkoniyatini, ko'rku salobatini ko'rsatishi bilan xarakterlidir. Muallif bu asarida inson, uning hayotdagi o'rni, o'z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat va ularning tantanasi to'g'risidagi qarashlarini mohirona turli tabiatli shaxslar qismati misolida ifoda etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.17.
2. Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.438.
3. Қўшжонов М. Ҳаёт – адабиёт кўзгусида. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулوم номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.256-257.
4. O'zbek adabiy tanqidi. Toshkent, Turon-iqbol. 2011, - B, 226

- 5.Yoqubov O. Ko'hna dunyo.. – Toshkent, 2015 -B,206-207
- 6.A.Hakimov.Bu ko'hna dunyo.Sharq yulduzi,1984,4-son,190-bet
- 7.Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.170.
- 8.Sodiq Sanjar. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – Б.523

